


VII.KORXONA VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI

So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta‘minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapti.

Jumladan, 2024- yil 1- aprel holatiga viloyatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari 26 032 tani tashkil etdi (ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar 22 764 ta).


Korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida umumiy ma‘lumotlar *fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1- aprel holatiga ko‘ra, birlikda.*




1- BO'LIM. XORAZM VILOYATI BO'YICHA KORXONA VA TASHKIOTLARNING SONI

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

2024- yil yanvar-mart oylarida, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



2024- yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 2021- yilning mos davriga nisbatan 94 taga ko'payganligini ko'rish mumkin.


Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2021- yilning mos davrida nisbatan yangi tashkil etilgan ma'suliyati cheklangan jamiyatlar soni 172 taga ko'paygan.

Hududlar kesimida


Urganch sh.	188	3,7%	Xiva sh.	95	5,0%
Shovot t.	155	9,0%	Xonqa t.	92	4,6%
Urganch t.	144	5,1%	Qo'shko'pir t.	87	4,1%
Bog'ot t.	137	7,5%	Yangiariq t.	82	5,6%
Hazorasp t.	119	7,3%	Yangibozor t.	72	5,9%
Gurlan t.	99	5,9%	Tuproqqal'a t.	46	6,3%
Xiva t.	96	5,4%			

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar 2024- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar


2024- yil 1- aprel holatiga faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 2020- yilning mos davriga nisbatan 6 111 taga oshganligini quyidagi sohalarda korxonalar sonining sezilarli o'sishi bilan ifodalash mumkin: savdoda – 5 354 tadan 9 049 taga (o'sish 3 695 ta), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 1 959 tadan 2 503 taga (o'sish 544 ta), sanoatda – 3 378 tadan 3 682 taga (o'sish 304 ta)

Hududlar kesimida


Urganch sh.	5 117	Shovot t.	1 725
Urganch t.	2 830	Gurlan t.	1 689
Qo'shko'pir t.	2 119	Hazoraspi t.	1 630
Xonqa t.	1 998	Yangiariq t.	1 453
Xiva sh.	1 908	Yangibozor t.	1 220
Bog'ot t.	1 820	Tuproqqal'a t.	735
Xiva t.	1 788		

Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari to'g'risida ma'lumotlar

2024- yil yanvar-mart oylarida, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Mamlakat iqtisodiyotining "sog'lomligi"ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bo'lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko'rsatkichidir.

2024- yil yanvar-mart oylarida savdo sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2022- yilning mos davriga nisbatan 408 tadan 481 taga (o'sish 73 taga), sanoatda 319 tadan 342 taga (o'sish 23 taga), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 54 tadan 92 taga (o'sish 38 taga), qurilishda – 40 tadan 62 taga (o'sish 22 taga) ko'paydi.


Hududlar kesimida

Urganch sh.	174	4,0%	Xiva sh.	93	5,3%
Shovot t.	154	10,4%	Xonqa t.	89	5,0%
Urganch t.	137	5,4%	Qo'shko'pir t.	84	4,5%
Bog'ot t.	133	8,4%	Yangiariq t.	81	6,4%
Hazorasp t.	116	8,3%	Yangibozor t.	70	6,7%
Gurlan t.	98	6,7%	Tuproqqal'a t.	45	7,4%
Xiva t.	94	5,9%			


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes subyektlari to'g'risida ma'lumotlar

2024- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Hududiy kesimda eng ko'p kichik biznes subyektlari Urganch shahrida (19,2 foiz), Urganch tumani (11,2 foiz), Qo'shko'pir (8,3 foiz), Xiva shahri (7,7 foiz) va Xonqa (7,8 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda.

Ma'lumki ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.

Hududlar kesimida


Urganch sh.	4 372	Shovot t.	1 485
Urganch t.	2 541	Gurlan t.	1 467
Qo'shko'pir t.	1 881	Hazorasp t.	1 398
Xonqa t.	1 766	Yangiariq t.	1 269
Xiva sh.	1 748	Yangibozor t.	1 050
Bog'ot t.	1 590	Tuproqqal'a t.	610
Xiva t.	1 587		

2-BO‘LIM. KORXONA VA TASHKILOTLARNING IQTISODIY FAOLIYAT TURLARI BO‘YICHA MA’LUMOTLAR

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar
2024- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, birlikda


Hududlar kesimida

Gurlan t.	371
Qo‘shko‘pir t.	301
Urganch t.	286
Xonqa	275
Xiva t.	219
Bog‘ot t.	192
Yangiariq t.	178
Yangibozor t.	159
Shovot t.	158
Tuproqqal‘a t.	123
Hazorasp t.	86
Urganch sh.	79
Xiva sh.	76



O‘zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning chuqur o‘ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda. Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to‘liq ta’minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo‘nalishlardan biriga aylandi.


Baliq ovlash va akvakultura



**Sanoat yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar
to‘g‘risida ma‘lumotlar
2024- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, birlikda**

Hududlar kesimida

Urganch sh.	676
Urganch t.	410
Qo‘shko‘pir t.	363
Xonqa t.	339
Xiva t.	278
Shovot t.	261
Xiva sh.	232
Bog‘ot t.	222
Hazorasp t.	215
Gurlan t.	217
Yangiariq t.	171
Yangibozor t.	160
Tuproqqal‘a t.	138



Sanoat tarmog‘i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo‘lgan tarmoqlardan hisoblanadi. So‘nggi besh yil ichida faoliyat ko‘rsatayotgan sanoat korxonalarining sonining o‘shish sur‘ati 109,0 foizni tashkil etdi.


Sanoat korxonalarining soni jami korxonalar va tashkilotlarning 14,1 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 97,7 foizini ishlab chiqarish sanoati (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 89,6 foiz), 0,5 foizini tog-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (o‘shish sur‘ati 128,6 foiz), 1,4 foizini suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilitatsiya qilish (o‘shish sur‘ati 98,1 foiz) va 0,4 foizini elektr, gaz bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash (o‘shish sur‘ati 123,1 foiz) tashkil etgan.



Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
2024- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Urganch sh.	365
Xiva t.	213
Urganch t.	195
Qo'shko'pir t.	157
Xiva sh.	156
Xonqa t.	102
Yangiariq t.	87
Shovot t.	76
Hazorasp t.	61
Bog'ot t.	55
Yangibozor t.	55
Gurlan t.	54
Tuproqqal'a t.	34



Qurilish sohasining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 55,7 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 94,5 foizni;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 20,1 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 104,9 foizni;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 24,2 foiz ulushni va 88,0 foiz o'sish sur'atini tashkil etdi.

324


Fuqarolik obyektlarini qurish

389

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

897


Bino va inshootlar qurish



Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
2024- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida


Urganch sh.	1 642
Urganch t.	1 030
Bog'ot t.	782
Xiva sh.	690
Qo'shko'pir t.	678
Hazorasp t.	652
Shovot t.	651
Xonqa t.	588
Xiva t.	578
Yangiariq t.	561
Gurlan t.	534
Yangibozor t.	445
Tuproqqal'a t	218



Tahlillar shuni ko'rsatdiki, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxonalar savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,8 foizi yoki 9 030 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:


- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 63,9 foiz ulushni tashkil etgan bo'lib, o'tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda o'sish sur'ati 105,8 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishi 23,4 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 112,7 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishi 12,7 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 134,9 foizni tashkil etdi.



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
2024- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida


Urganch sh.	382
Xiva sh.	275
Urganch t.	167
Xonqa t.	108
Shovot t.	101
Gurlan t.	92
Bog'ot t.	86
Qo'shko'pir t.	79
Xiva t.	77
Yangibozor t.	73
Yangiariq t.	73
Hazorasp t.	59
Tuproqqal'a t.	44



2024- yil 1- aprel holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar o'sish sur'ati 2020- yilning mos davriga nisbatan 124,7 foizni tashkil etdi. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning 14,4 foiz ulushini tashkil etdi;

- restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 85,6 foiz ulushini tashkil etdi.



Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

2024- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida


Urganch sh.	111
Xiva sh.	38
Xonqa t.	32
Qo'shko'pir t.	32
Urganch t.	32
Xiva t.	23
Shovot t.	21
Gurlan t.	17
Yangiariq t.	16
Bog'ot t.	15
Hazorasp t.	13
Yangibozor t.	11
Tuproqqal'a t.	3



2024- yil 1- aprel holatiga ko'ra noshirlik faoliyati, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 22,8 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 2023- yilning mos davriga nisbatan 122,1 foizni tashkil etdi.

Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirishlar hamda aloqa yo'nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 30,2 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 2023- yilning mos davriga nisbatan 79,7 foizni tashkil etdi.


Kompyuter dasturlashtirish va axborot xizmati ko'rsatish yo'nalishlarida esa korxonalar soni axborot va aloqa sohasidagi korxonalar va tashkilotlarning 47,0 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 105,6 foizni tashkil etdi.



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
2024- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Urganch sh.	208
Xiva sh.	52
Urganch t.	49
Xonqa t.	47
Gurlan t.	42
Hazorasp t.	36
Xiva t.	33
Shovot t.	32
Qo'shko'pir t.	32
Bog'ot t.	23
Yangiariq t.	20
Yangibozor t.	21
Tuproqqal'a t.	8



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxonalar va tashkilotlarning salmoqli qismi, ya'ni 527 tasi yoki 87,4 foiz ulushi kichik tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yo'nalishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:

- sog'liqni saqlash yo'nalishiga 94,5 foiz korxonalar to'g'ri kelib, o'sish sur'ati 2023- yilning mos davriga nisbatan 105,0 foizni tashkil etdi;

- yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar soni 3,3 foizni tashkil etib, o'sish sur'ati 83,3 foizni tashkil etdi;


- yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 2,2 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 144,4 foizni tashkil etdi.



Tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar 2024- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Urganch sh.	214
Hazorasp t.	161
Xonqa t.	122
Urganch t.	112
Bog'ot t.	70
Qo'shko'pir t.	62
Shovot t.	62
Xiva sh.	55
Gurlan t.	50
Xiva t.	47
Yangiariq t.	25
Yangibozor t.	19
Tuproqqal'a t.	16



2024- yil 1- aprel holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni jami viloyatdagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 3,9 foizni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:

- quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish sur'ati 105,7 foizni tashkil etdi;
- ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining o'sish sur'ati 103,0 foizni;
- pochta va kuryerlik yo'nalishi 141,7 foiz oshdi;
- havo transporti yo'nalishida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 85,7 foizga kamaydi.




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot


2024- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Yetakchi o'rinni 122 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Rossiya Federatsiyasi va Turkiya Respublikasi egallagan. Bu viloyatda chet el investitsiyasi ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 50,8 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, Xorazm viloyatiga o'z kapitalini kiritayotgan Turkmaniston (ulushi 14,8 foiz), Xitoy (ulushi 8,2 foiz) va Qirg'iziston Respublikasi (ulushi 4,1 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

Hududlar kesimida

Urganch sh.	52	Bog'ot t.	5
Urganch t.	10	Yangibozor t.	5
Xiva t.	8	Qo'shko'pir t.	4
Xonqa t.	8	Hazorasp t.	4
Xiva sh.	7	Yangiariq t.	4
Gurlan t.	7	Shovot t.	3
Tuproqqal'a t.	5		

**Davlatlar kesimida faoliyat
ko'rsatayotgan xorijiy kapital
ishtirokidagi korxonalar to'g'risida ma'lumot**
2024- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda



O'zbekistonning yangi tashqi siyosatining asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnihilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, chet el investitsiyasi ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 61 tasi qo'shma korxonalar, 61 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tuzidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reyestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reyestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Yuridik shaxslarning faollik darajasi – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2024- yil 1- aprel holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.